



UDK: 821.512.133:82-32

**Shirinmoh TO'RAYEVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*  
*E.mail: torayevashirinmoh@gmail.com,*

*Filologiya fanlari doktori J.Mahmudov taqrizi asosida*

### ERKIN A'ZAM HIKOYALARIDA OBRAZLAR TIZIMI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam hikoyalarida obrazlar tizimining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Adib ijodida bosh va ikkinchi darajali obrazlarning o'zaro munosabati, ularning xarakter yaratishdagi funksiyasi hamda psixologik tasvir vositalari orqali inson ruhiyatining ochilishi masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Obraz, ramziy obraz, badiiy detal, ichki monolog, individual uslub, zamonaviy o'zbek hikoyachiligi, estetik talqin.

### СИСТЕМА ОБРАЗОВ В РАССКАЗАХ ЭРКИНА АЗАМА

Аннотация

В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности системы образов в рассказах народного писателя Узбекистана Эркина Азама. Освещаются вопросы взаимосвязи главных и второстепенных персонажей в творчестве писателя, их функциональная роль в создании характера, а также раскрытие внутреннего мира человека посредством психологического изображения.

**Ключевые слова:** Образ, символический образ, художественная деталь, внутренний монолог, индивидуальный стиль, современная узбекская новеллистика, эстетическая интерпретация.

### THE SYSTEM OF IMAGES IN ERKIN AZAM'S SHORT STORIES

Annotation

This article analyzes the artistic and aesthetic features of the system of images in the short stories of the People's Writer of Uzbekistan, Erkin Azam. It examines the interrelation between major and minor characters in the writer's works, their functional role in character development, and the revelation of the human inner world through psychological depiction.

**Key words:** Image, symbolic image, artistic detail, internal monologue, individual style, modern Uzbek short story writing, aesthetic interpretation.

**Kirish.** Erkin A'zam zamonaviy o'zbek hikoyachiligining yetuk namoyandaligidan biri sifatida o'z asarlarida inson ruhiyatini chuqur va ishonarli tasvirlash orqali alohida ajralib turadi. Erkin A'zam (Erkin A'zamov) o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan adiblardan biri bo'lib, uning ijodi mustaqillikdan avvalgi davrlardanoq adabiyotshunoslar, tanqidchilar hamda ijod ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. Prezident Sh. Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib etishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro anjuman qatnashchilariga yo'llagan tabrik nutqida bayon etilgan quyidagi mulohazalar zamonaviy hamda badiiy adabiyotimizni, uning boy ma'naviy merosini yanada chuqurroq tadqiq etishga qaratilgan sa'y-harakatlar yo'nalishini belgilab beradi: "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega". Adibning har bir asari zamonaviy o'zbek jamiyati hayoti, ma'naviy-axloqiy muammolari, inson va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatlar haqida mushohada yuritishga chorlaydi. Yozuvchining hikoyalarida real hayotdagi oddiy odamlar obrazi orqali jamiyatdagi ijtimoiy-ruhiy muhit ochib beriladi. Adib uchun qahramonning tashqi harakatlaridan ko'ra uning ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda ma'naviy izlanishlari ustuvor ahamiyat kasb etadi, obrazning badiiy mohiyati aynan shu ichki qatlam orqali ochib beriladi. Uning hikoyalarida yaratilgan obrazlar real hayotiy

asosga ega bo'lib, insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va hayotga bo'lgan murakkab munosabatlarini aks ettiradi. Adib hikoyalaridagi obrazlar tizimi murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda yetakchi qahramon bilan bir qatorda ikkinchi darajali personajlar ham muhim badiiy funksiyani bajaradi. Ikkinchi darajali obrazlar aksariyat hollarda bosh qahramon xarakterini yoritish, uning ichki ziddiyatlarini yanada chuqurlashtirish yoki muayyan g'oyaviy qarashni ifodalashga xizmat qiladi. Shu tarzda hikoya tarkibidagi obrazlar o'zaro badiiy va mantiqiy bog'liqlikda namoyon bo'lib, yagona va yaxlit estetik tizimni shakllantiradi. "Epik asarda voqealik alohida shaxs emas, balki qahramonlar majmui orqali badiiy umumlashtiriladi." Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov epik asarlarda obraz masalasini badiiy umumlashtirish prinsipi bilan bog'liq holda izohlaydi. Olimning fikricha, badiiy obraz ayrim holatlarda alohida shaxs timsolida muayyan ijtimoiy qatlam yoki muhitni aks ettirishi mumkin, biroq epik asarning tabiati nuqtayi nazaridan voqelik ko'pincha faqat bitta qahramon orqali emas, balki o'zaro bog'langan bir nechta obrazlar yig'indisi vositasida umumlashtiriladi. Shu sababli epik asarda obrazlar tizimi voqelikning keng qamrovli va xolis manzarasini yaratishga xizmat qiladi. Adabiyotshunos qayd etganidek, epik asarda voqelikning yakka shaxs orqali emas, balki o'zaro aloqador obrazlar majmui orqali badiiy umumlashtirilishi Erkin A'zam hikoyalarida ham aniq namoyon bo'ladi. Zero, yozuvchi oddiy insonlar o'rtasidagi munosabatlar, ikkinchi darajali obrazlar hamda ularning o'zaro bog'liqligi orqali davr manzarasini xolis va keng miqyosda tasvirlashga muvaffaq bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Erkin A'zam ijodi mustaqillikdan avvalgi davrlardanoq adabiyotshunos olimlar, munaqqidlar hamda ijod ahli diqqat markazida bo'lib kelgan. Dastlab, R.Otayev, N.Vladimirov hamda H.Boltaboyev singari tadqiqotchilar adibning dastlabki asarlaridagi badiiy izlanishlar, uslubiy yangilanishlar hamda qahramonlar ruhiyatining tasviri xususida o'z ilmiy qarash va mulohazalarini bayon etganlar. Mustaqillik davri va undan keyingi yillar mobaynida esa A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, I.Haqul, Sh.Rizayev, G.Sattorova, M.Qo'chqorova, S.To'laganova kabi adabiyotshunoslardan tortib, yosh izlanuvchilar — G.Rofiyeva, O.Shofiyev, A.Xolmurodov, M.Sheraliyeva, Sh.Toshxo'jayeva, Y.Odilovlargacha adib ijodiga bag'ishlab ilmiy maqolalar, taqrizlar hamda dissertatsion tadqiqotlar yaratilib kelmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Erkin A'zam hikoyalari obrazlar tizimi nuqtayi nazaridan o'rganishda struktur-poetik tahlil, psixologik tahlil hamda ramziy-semantik talqin metodlaridan foydalanildi. Asarlardagi qahramonlar xarakteri va ichki kechinmalarini o'chishda sistemali yondashuv qo'llanildi. Obrazlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashda qiyosiy-tipologik metoddan foydalanildi. Shuningdek, hikoyalarda buyum-obraz va ramziy detallar ("jaydari olma", "yo'l")ning badiiy-falsafiy ma'nosini o'chishda hermenevtik talqin usuli asos bo'lib xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Erkin A'zam – zamonaviy o'zbek nasrida oddiy inson qismati, ichki axloqiy ziddiyatlari hamda jamiyat va shaxs o'rtasidagi qarama-qarshilikni nozik kinoya, yumor va fojiviy ruh uyg'unligida tasvirlagan adib hisoblanadi. "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasi yozuvchining insoniylik, sodda vijdon va zamonning shafqatsiz mohiyati haqidagi konseptual qarashlarini o'zida aks ettirgan asarlaridan biridir. Hikoya ikki do'st – hikoyachi (muallifning "men" obrazi) va Ramazon Haydarov o'rtasidagi uzoq yillik munosabatlar asosida shakllantirilgan. Voqealar tashqi tomondan kulgili va hangomaviy ruhda tasvirlansa-da, ichki qatlamida chuqur fojiviy insoniy dramatism ustuvorlik qiladi. Asarning bosh g'oyasi shaxsning axloqiy pokligi bilan ijtimoiy tizimning shafqatsiz mexanizmi o'rtasidagi nomuvofiqlikni ochib berishga yo'naltirilgan. Hikoyaning markaziy qahramoni Ramazon bo'lib, u muallif tomonidan ataylab "anoyi" sifatida talqin qilinadi. Biroq ushbu anoyilik aql yetishmasligi emas, balki sof ishonch, beg'uborlik hamda insoniylikning eng sodda va tabiiy ifodasidir. Ramazon manfaatni ko'zlamaydi, insonlarning so'ziga ishonadi, va daga esa muqaddas qadriyat sifatida qaraydi. Aynan shu sifatlar uni jamiyat nigohida "aybdor" maqomiga olib keladi. Ramazonning chayqovchilik aybini o'z zimmasiga olishi jinoyat mohiyatini to'liq anglangani uchun emas, balki boshqa bir insonni himoya qilish istagidan kelib chiqadi. Demak, uning fojiviy taqdiri axloqiy yuksaklik bilan ijtimoiy o'zgarish o'rtasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keladi. Hikoyadagi "men" obrazi esa asarda muhim psixologik funksiyani bajaradi. U Ramazonga zid qo'yilgan "moslashuvchan shaxs" tipini ifodalaydi. U jamiyatda o'z mavqeiini topgan, oilali, ish bilan band, tartibli turmush tarzini olib boradi. Biroq uning ichki olamida doimiy bo'shliq va ruhiy bezovtalik hukm suradi. Sud jarayonida Ramazonni "jo'ram emas" deya rad etishi hikoyachining axloqiy sinov nuqtasiga aylanadi va aynan shu lahzadan boshlab u o'zini kechira olmaydigan ruhiy holatga tushadi. Asar yakunida hikoyachi Ramazonan emas, balki o'zidan norozi bo'lgan inson sifatida tasvirlanadi. Mazkur obraz orqali muallif zamonaviy inson ruhiyatidagi vijdoniy inqirozni ochib beradi. Hikoyada jaydari olma ramziy ma'no kasb etib, Ramazon obrazining badiiy muqobili sifatida talqin etiladi. Jaydari olma tashqi ko'rinishda oddiy, hatto ko'rimsiz bo'lsa-da, tabiiyligi va shirinligi bilan ajralib turadi. U sun'iy ravishda payvand qilinmagan, o'z asl holatini saqlab qolgan. Muallif ushbu ramz orqali jamiyatda tashqi jozibaga

intilish kuchayib, ichki poklik va tabiiylikning qadri pasayib borayotganini ifodalaydi. Ramazon ham aynan shu jaydari olma singari jamiyat mezonlariga mos kelmaydigan, shu sababli chetga surilgan shaxs sifatida gavdalanadi. Shodi garang obrazi esa bolalik xotiralari bilan bog'liq holda yo'qolib borayotgan beg'uborlik, poklik va tabiiy insoniylikning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. "Chantrimore – Kalamakatore... Bu nima degani Ramazon? Qaysi tildan bu g'alati so'zlar, ma'nosi nima? Men bilmayman, sen ham bilmaysan. Shodi garangdan so'raylik desak, u endi yo'q – uzoq yili o'lgan. Miyasi aynib o'lgan. Quloqning zahmidan. Urushning kasri. Undan tirnoq – farzand qolmadi, mol-dunyo qolmadi – "Chantrimore" qoldi, "Kalamakatore" qoldi, bizga: senga, menga... Nima degani bu? O'ylashimcha, buni endi faqat ikki kishi – ikkalamizgina tushunadiganga o'xshaymiz: sen-u men." "Chantrimore – Kalamakatore" so'zlari mantiqiy jihatdan aniq mazmun kasb etmasa-da, ular sof insoniy yaqinlikni, manfaatdan holi munosabatlar tilini ifodalaydi. Ushbu so'zlar Ramazon va hikoyachi o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni yanada mustahkamlaydi hamda asar yakunida chuqur falsafiy mazmun kasb etgan savol darajasiga ko'tariladi. Asardagi asosiy ziddiyat halollik va makr, insoniylik va ijtimoiy tizim, beg'uborlik va "moslashib yashash" o'rtasidagi qarama-qarshilik orqali namoyon bo'ladi. Ramazon ijtimoiy nuqtayi nazardan mag'lub bo'lsa-da, axloqiy jihatdan g'olib sifatida qoladi. Hikoyachi esa tashqi barqarorlikka erishganiga qaramay, ichki jihatdan ma'naviy osoyishtalik va ruhiy taskin topa olmaydi... Adabiyotshunos olim Ummat To'ychiyev obraz haqida shunday ta'kidlaydi: "Obraz turli shaklda ko'rinadi, u o'ziga xos, bir butun narsa. Obraz estetik ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchini zavqlantiradi, o'y va xayolni qo'zg'aydi, emotsional ta'sir ko'rsatadi, insonni mushohadaga undaydi hamda mulohazakorlikka o'rgatadi". Darhaqiqat, obraz badiiy asarning asosiy estetik ustuni hisoblanadi. Obraz vositasida yozuvchi nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki o'quvchining ichki olamiga kirib borib, uni chuqur ruhiy kechinmalar bilan yuzma-yuz qiladi. Obrazning qudrati shundaki, u faqat tashqi belgilar yig'indisi emas, balki ma'naviy va ruhiy mazmunni o'zida mujassam etgan yaxlit badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli obraz o'quvchini befarq qoldirmaydi, balki uni mushohada yuritishga, muayyan xulosalarga kelishga hamda hayotga yangicha nigoh bilan qarashga undaydi. Mazkur fikr Erkin A'zamning "Piyoda" hikoyasida ham yaqqol o'z tasdig'ini topadi. Asardagi bosh qahramon obrazi tashqi harakatlar orqali emas, balki uning ichki kechinmalari va ruhiy holati vositasida badiiy jihatdan ochib beriladi. Masalan, qahramonning piyoda yurishi tashqi tomondan oddiy holatdek tuyulsa-da, aslida u hayot yo'li, insonning ichki izlanishlari hamda jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq ramziy mazmunni o'zida aks ettiradi. Natijada obraz o'quvchini chuqur mushohadaga undaydi, uni fikrlashga chorlaydi va Ummat To'ychiyev ta'kidlaganidek, kuchli estetik hamda hissiy ta'sir uyg'otadi. Erkin A'zamning "Piyoda" hikoyasi obrazlar tizimi nuqtayi nazaridan tahlil etilganda, asar oddiy voqealar ketma-ketligidan iborat emas, balki o'zaro bog'liq ijtimoiy, psixologik va ramziy obrazlar uyg'unligidan tashkil topgan yaxlit badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi hikoya davomida alohida xarakterlarni mustaqil tarzda tasvirlashdan ko'ra, ularni markaziy qahramon atrofida birlashtiradi hamda har bir obrazni Berdiyevning dunyoqarashi va ruhiy kechinmalari bilan chambarchas bog'liq holda yoritadi. Shu bois hikoyadagi obrazlar tizimi ichki ziddiyatlarga boy, ko'p qatlamli hamda ramziy mazmun bilan boyitilgan holda namoyon bo'ladi. Hikoyaning markazida Berdiyev obrazi turadi. U asarning g'oyaviy va psixologik o'qi hisoblanib, boshqa barcha obrazlar bevosita yoki bilvosita uning dunyoqarashi orqali yoritiladi. Berdiyev an'anaviy muhitda,

Tiniq momo tarbiyasida voyaga yetgan, xurofotga asoslangan qarashlar ongiga chuqur singib ketgan shaxs sifatida tasvirlanadi. U davr o'zgarishlarini ichki jihatdan qabul qila olmaydi, yangiliklarni axloqiy inqiroz sifatida talqin qiladi va o'zini "to'g'ri yo'l"da deb biladi. Qahramonning ichki monologlari, o'tmish bilan bog'liq xotiralari hamda hozirgi voqelikka nisbatan hissiy munosabati uning ruhiy beqarorligini, atrof-muhit va jamiyat bilan uyg'unlikni yo'qotib borayotganini badiiy jihatdan ochib beradi. Berdiboy o'zini boshqalardan ustun qo'yadigan shaxs emas, balki aksincha, o'z qarashlari doirasida qolib ketgan, zamon bilan uyg'unlasha olmayotgan fojiaiy inson sifatida tasvirlanadi. Uning fojiaiyiligi aynan ichki qat'iyati bilan tasviri voqelik o'rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo'ladi. Berdiboyga ma'nodosh qarama-qarshi obrazlardan biri Gulshanamdir. U yangi avlod, zamonaviy tafakkur hamda shahar madaniyatiga intilish timsoli sifatida gavdalanib, akasining qat'iy va an'anaviy qarashlariga ochiqchasiga qarshi turadi. Gulshanamning ta'lim olish maqsadida Toshkentga yo'l olish qarori obrazlar tizimida muhim burilish nuqtasi vazifasini bajaradi. Ushbu obraz orqali yozuvchi ayol shaxsining ijtimoiy faolligini, mustaqil fikrlash va tanlov qilish huquqini badiiy jihatdan yoritadi. Berdiboy tasavvurida Gulshanam "buzilgan zamon" mahsuli sifatida baholansa-da, muallif pozitsiyasida u tarixiy taraqqiyotning tabiiy va muqarrar natijasi sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa obrazlar tizimida avlodlar va dunyoqarashlar o'rtasidagi ziddiyat yanada keskinlashadi. Rajab bodi obrazi ham hikoyada alohida o'rin egallaydi. Berdiboy uni barcha salbiy o'zgarishlarning sababchisi sifatida qabul qiladi: televizorni qishloqqa olib kirgan, yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirgan va zamonaviy turmush tarzini yoygan shaxs sifatida ko'radi. Biroq muallif Rajab bodini mutlaq salbiy qahramon sifatida talqin qilmaydi. Aksincha, u zamon talablariga moslashgan, hayotdan zavq olishni biladigan, an'ana va yangilik o'rtasida muvozanatni saqlay oladigan inson sifatida tasvirlanadi. Rajab bodi obrazi Berdiboy dunyoqarashining nisbiy va biryoqlama ekanini ochib beruvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi hamda obrazlar tizimida markaziy qahramonga keskin qarama-qarshi qo'yiladi. Shu orqali muallif turli dunyoqarashlar to'qnashuvi orqali voqelikni yanada kengroq va xolisroq yoritishga erishadi. Hikoyadagi ota va ona obrazlari fon xarakterga ega bo'lishiga qaramay, obrazlar tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ota — Parda Qurbon sustkash, loqayd, voqealarga faol munosabat bildirmaydigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning fikrlarini "ihm-ihm" kabi noaniq tovushlar bilan cheklashi avlodlar o'rtasidagi ma'naviy uzilish va ruhiy bo'shliqni ifodalaydi. Ona obrazi esa hayotiylik tamoyiliga asoslangan bo'lib, zamon bilan murosas qilgan, kundalik turmush tashvishlarini ustuvor deb biladigan ayol timsoli sifatida gavdalanadi. Hikoyada ramziy-psixologik obrazlar tizimi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Berdiboy

yo'lida uchraydigan ajinalar real mistik mavjudotlar emas, balki uning ongida zamonaviy hayot manzaralarining qo'rqinchli va tushunarsiz shaklda aks etishining ifodasidir. Ajinalar timsolida qahramonning ichki qo'rquvi, yangilikni qabul qila olmasligi hamda voqelikni xurofotga asoslangan tasavvurlar orqali idrok etishi badiiy jihatdan aks ettiriladi. Ajinalar bilan to'qnashuv Berdiboy ruhiy inqirozining eng keskin nuqtasini tashkil etib, uning ongida real va irreal olam chegaralari buzilib borayotganini ko'rsatadi. Mototsikl obrazi ham ramziy mazmun kasb etadi. U Berdiboy uchun nafaqat harakat vositasi, balki hayotiy tayanch vazifasini ham bajaradi va shu bilan birga uning eskirgan dunyoqarashining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Mototsiklning buzilishi hamda soylikka tashlab yuborilishi qahramonning ichki sinishi, o'ziga ishonch va tayanch nuqtalarini yo'qotganini anglatadi. Shundan keyin uning piyoda qolishi faqat jismoniy holatni emas, balki ruhiy tanazzul va ichki yolg'izlikning ramziy ifodasini bildiradi. Yo'l, qorong'ulik va og'ir xurjun bilan yurish tasviri Berdiboyning zamon bilan hamqadam bo'la olmasdan, asta-sekin yolg'izlanib borayotganini badiiy jihatdan ifodalaydi. Qorong'ilik va adashish motivlari esa qahramon ongining tub qatlamlarida mavjud bo'lgan qo'rquv, noaniqlik hamda ma'naviy bo'shliqning ramziy belgisi sifatida talqin etiladi. "Piyoda" hikoyasida obrazlar tizimi markaziy qahramon — Berdiboy shaxsiyati atrofida shakllangan bo'lib, qarama-qarshi, fon va ramziy-psixologik obrazlar vositasida jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, avlodlar o'rtasidagi ziddiyat hamda zamon bilan uyg'unlasha olmagan insonning fojiaiy qismati chuqur badiiy talqin etiladi. Obrazlar tizimining ana shunday yaxlit va izchil qurilishi asarni ijtimoiy-psixologik mazmuni teran, falsafiy umumlashmalarga boy badiiy namuna darajasiga ko'taradi.

**Xulosa va takliflar.** Erkin A'zam hikoyalarida obrazlar tizimi markaziy estetik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Adib obrazlarni alohida-alohida xarakter sifatida emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit badiiy tizim sifatida quradi. Markaziy qahramon atrofida qarama-qarshi, fon va ramziy obrazlarning jamlanishi asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi. "Anoyining jaydari olmasi", "Piyoda" hikoyalarida ramziy obrazlar, ichki monolog va psixologik tasvir vositasida inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar teran badiiy talqin etiladi. Obrazlar tizimining ko'p qatlamli va ramziy xarakterga ega ekanini yozuvchining o'ziga xos uslubini belgilovchi muhim omildir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Erkin A'zam hikoyalarini struktur-poetik hamda psixologik yondashuv asosida o'rganish zamonaviy o'zbek nasrida inson ruhiyati va ijtimoiy muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelgusida adib ijodini qiyosiy-tipologik jihatdan boshqa zamonaviy yozuvchilar bilan solishtirib o'rganish, shuningdek, buyum-obraz fenomenini alohida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг "Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018 йил, 8 август. № 162.
2. Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: 2019. – 242 б.
3. Отаев Р. Дилрабо қўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи. 1984. -№2.- Б. 162-163.
4. Владимирова Н. Новеллачиликдаги изланишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. №6.- Б. 13-16.
5. Болтабоев Ҳ. Ўз сўзини излаб //ЎзАС. – 1982 йил 20 август.
6. Аъзам Э. Анонининг жайдари олмаси. Тошкент: Faktor books 2022. – 336 б.
7. Тўйчиев У.Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари.Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.– 508 б.
8. Аъзам Э. Анонининг жайдари олмаси. Тошкент: Faktor books 2022. – 336 б.